

**OLY TA'LIM MUASSASALARIGA  
KIRUVCHILAR UCHUN**

**SAVOLLAR KITOBI**

ABITURIYENT: \_\_\_\_\_  
F.I.O. Imzo

**ABITURIYENT DIQQATIGA!**

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

**Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.**

**Kitob tipi: 32**

**FANLAR:**

*Blok 1: Ona tili va adabiyot*

*Blok 2: Biologiya*

*Blok 3: Kimyo*

Savollar kitobi raqami: **1701334**

Toshkent – 2017

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. To'rt o'rinda yasama so'zlar bilan ifodalangan hollar ishtirok etgan gapni aniqlang.  
A) *Buxoroga omon-eson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizishini aytdi.*  
B) *Shu payt yotog'imizdan bolalar ham birin-ketin ko'zlarini ishqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshlashdi.*  
C) *Saharlab choyni naridan beri ichib, otxonaga yugurdim.*  
D) *G'uvullab uchayotgan bo'ron ichida yigitlar naridan beri bedalarni arava tagiga olib kirishdi.*
2. Quyidagi qaysi gaplarda fonetik hodisa asosida yozilgan so'z yasovchi qo'shimcha qatnashgan?  
1. Kel, o'zbek qardoshim, aziz qo'nog'im bo'l.  
2. Ko'rpaning guldor qavig'i hammani qiziqitirdi.  
3. O'ynoqi musiqa sadolari o'tirganlarning mudroq kayfiyatini tarqatdi.  
4. O'tovda chordana qurib o'tirgan chol asta o'rnidan qo'zg'alib qo'ydi.  
A) 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 2, 3, 4
3. Mushoirada davra ishtirokchilaridan biri she'rni dabdaba bilan o'qibdi, uning bu qilgan ishi ko'chilikka ma'qul tushmabdi. Shunda shoirlardan biri u kishiga:  
-Mavlon, siz she'r o'qiysizmi yoki odam qo'rqitasizmi? deya tanbeh bergan ekan.  
Berilgan parchada sodda yasama so'zlarning yasaliish asoslari qaysi turkumlarga oid so'zlar iborat?  
A) *ot, sifat, fe'l* B) *ot, sifat* C) *ot, sifat* D) *sifat, fe'l*
4. Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?  
A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
5. Berilgan so'zlardan qaysilariga ayrim shakl yasovchi qo'shimcha qo'shilganda ham, ayrim so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilganda ham tovush tushish hodisasi kuzatiladi?  
1) og'iz; 2) o'rin; 3) yig'i 4) o'yin; 5) ikki; 6) past; 7) ayir  
A) 1, 2, 3, 5 B) 1, 2, 3, 7 C) 1, 2, 4, 5, 6, 7 D) 1, 2, 7
6. Ko'chirma gapli qo'shma gap haqida berilgan noto'g'ri hukmni toping.  
A) *ko'chirma gap ichida muallif gapi kelsa, muallif gapidan keyin ko'chirma gapning uzilgan qismi nuqta va tire yoki vergul va tire bilan davom etadi.*  
B) *muallif gapi ko'chirma gapning ichida kelsa, ko'chirma gapning ikkinchi qismi bosh harf bilan davom etishi mumkin.*  
C) *ko'chirma gap muallif gapi ichida kelsa, ko'chirma gap kichik harf bilan boshlanadi va muallif gapi bosh harf bilan davom etadi.*  
D) *ko'chirma gap oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari qo'shtirnoqdan keyin qo'yilish holati uchraydi.*
7. **Gapirganda avvalgi baland ovoz bilan emas, shivirlab gapirdi.** Ushbu gapdagi yasama so'zlar haqida berilgan noto'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *ravishdan sifat yasalgan*  
B) *taqlid so'zdan fe'l yasalgan*  
C) *otdan fe'l yasalgan*  
D) *sifatdan ot yasalgan*
8. Berilgan paronim juftiga ega omonim so'zlarni aniqlang.  
1) **shoh**; 2) **asr**; 3) **soch**; 4) **rux**; 5) **sanat**; 6) **tus**  
A) 3, 4, 5, 6 B) 2, 4 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5
9. Qaysi so'zlar ham ko'p ma'noli ham shakldosh so'z hisoblanadi?  
A) *chaqmoq, rasta, bardam* B) *dunyo, asl, ilik* C) *shox, tovon, es* D) *yoq, to'da, asil*
10. Qaysi gapda ajtarib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi narsa va hodisalar o'rtasida makon va zamondagi o'zaro aloqadorlik asosida ko'chgan?  
A) *Ko'ngliga qarayverib-qarayverib tug'ishganlaridan hambegona bo'ldim.*  
B) *Avtomobilningeshigini* ochib do'stini chiqarib oldi.  
C) *Hammamizning mana shukalondimog'* yigit aybdor, - degan fikr o'tadi xayolidan.  
D) *Kechagi fudbol bahsida O'zbekistonning* qo'li baland keldi.
11. Qaysi gapda fe'lning vazifa shakllaridan uch turi ishtirok etgan?  
A) *Necha kundan beri qattiq esayotgan shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni qoldirdi.*  
B) *Hammamiz orziqib kutilayotgan bayramni munosib kutib olishga harakat qilyapmiz.*  
C) *- Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, shuning uchun sha'ningizga dog' tushiradigan ish qilmang, - dedi u kuyunib.*  
D) *U so'ridagi urunib qolgan ko'rpachani yig'ishtirib olib, mehmonlar kelguncha joy tayyorlashga ulgurdi.*
12. Yana tushdi Rus sari yo'lim,  
Eron, sendan ketgummi hali,  
Nahot, seni bot ko'rmas bo'ldimi?  
Ona yurtga mehrim tufayli  
Yana tushdi Rus sari yo'lim.  
She'riy parchada ravish turkumiga oid so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?  
A) 2 B) 4 C) 5 D) 3
13. Berilgan so'zlardan nechtasi sodda ravishlar sanaladi?  
**birin-ketin, bafurja, saharlab, olg'a, vaqtincha, u yerga, ertalabki, qasddan, ochiqchasiga**  
A) 6tasi B) 5tasi C) 7tasi D) 4tasi
14. Yordamchi so'z turkumlarining faqat bir turiga, oid birliklar uch o'rinda qo'llangan gapni toping.  
A) *Ko'z oldimda sobit turar faqat shu Vatan, Kulbasi ham kenglik qadar chulg'aydi meni.*  
B) *Faqat o'tmish bilan yashamas inson, Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod.*  
C) *Dildan o'chiraylik g'amning otini, Bahor ham baxt kabi axir yagona.*  
D) *Mana shu o'yin-kulgular, qo'shiq va kuylar yosh-u qarining diliga orom hamda quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqinda bo'lgan edi.*
15. Ikkala qismidagi eganing shakldoshi mavjud bo'lgan bog'langan qo'shma gapni aniqlang.  
A) *Tongga yaqin tuman tushdi va atrofdagi daraxtlar ko'rinmay qoldi.*  
B) *Dekabr oyining boshida bir qor yog'di-yu, keyin havo ochildi.*  
C) *Olma ikkinchi bor gullasa, bu kuzning iliq kelishidan nishondir.*  
D) *Bu yil cho'llarda o't mo'l, chunki yomg'ir ko'p yog'di.*
16. Berilgan so'zlardan nechtasida nuqtalar o'rniga chuqur til orqa sirg'aluvchi jarangsiz undosh qo'yilishi kerak?  
**...alifa, ...ilvatgoh, mu...olif, ...assos, e...rom, shuku...li, ta...sin**  
A) *to'rtasida* B) *ikkitasida* C) *beshtasida* D) *uchtasida*
17. Quyida berilgan ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qaysi birida tinish belgilarining qo'llanish qoidasiga rioya qilinmagan?  
A) *"Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solgaysiz, - dedi Bibixonim keliniga, - aytganlarini so'zsiz bajargaysiz".*  
B) *Guli dedi: "G'azaldan bahr topmag'an kim?"*  
C) *Ertoevning gapini eshitmagan inobat birinchi unga yuzlanib: "Umarov uka, - dedi sekin, - unisiyam kerak, bunisiyam kerak".*  
D) *Qaynonasi Bibixonim: "Biz in'omning teran ana'nasi bor, - dedi sirg'alarini kelinining qulog'iga taqib qo'yar ekan".*
18. Egasi shaxs oti bilan ifogalangan gani aniqlang.  
A) *Kitobxonni yo'q asar egasi tashlab ketgan uyga o'xshab fayzsizdir.*  
B) *Qalbi qog'ozdek oppoq, qog'ozdek lovullab yonadigan odamgina chinakam san'at asari yarata oladi.*  
C) *Yaxshi farzand ota umrini davom ettirishi azaldan mal'um, yaxshi asar esa yozuvchi umrini davom ettiradi.*  
D) *Haqiqiy haykaltarosh o'lik toshdan yasagan haykal tirikka o'xshaydi.*
19. Chodir eshigida osilgan kimxob parda Humoyunning qo'lga mayin va salqintegdi.  
Berilgan gapda bitishuvli so'z birikmalaridagi tobe qismlar qaysi turkumlarga oid?  
A) *bir o'rinda fe'l, bir o'rinda ot, ikki o'rinda sifatga oid*  
B) *bir o'rinda fe'l, bir o'rinda sifat, ikki o'rinda ravishga oid*  
C) *bir o'rinda fe'l, uch o'rinda sifatga oid*  
D) *bir o'rinda fe'l, ikki o'rinda sifatga oid*
20. Yaproqlar tebranar she'r maqomiga,  
Chechaklar jimgina egib turar bosh.  
Marmar sarhovuzning kumush jomiga  
Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.  
Ushbu she'riy parchada moslashuvli tobe bog'lanishlar sonini aniqlang.  
A) 4 B) 3 C) 5 D) 6
21. Ergash gap qismida uyushgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gapni toping.  
A) *Sa'diy Sheroziy xalq donishmandligining nodir namunalariga o'z iste'dodi bilan sayqal berib, "Guliston" va "Bo'ston"ni yaratdi.*  
B) *Hammasi joyida, do'stlar, men hech kimdan, hech narsadan xafa emasman.*

- C) *Xalqimiz o'tmishda ko'plab hokimliklar, xohlik va amirliklar tuzgan, shuning uchun uning ko'plab poytaxtlari bo'lishi tabiiydir.*  
 D) *Quyosh bosh ko'tarib chiqadi-yu, uxlab yotgan dov-daraxtlar, giyohlar, borliqni uyg'otib yuboradi.*
22. Qaysi gapda faqat bitta tub so'z mavjud?  
 A) *Rahmsizlik hamisha o'zlik, qo'rqoqlik, vahimada kelib chiqadi.*  
 B) *Xatoliklar nisbati o'zgarishi umumiy ko'rsatkichga ta'sir qilmaydi.*  
 C) *Millionlab insonlar iymon sari yuz tutdi.*  
 D) *Zaruratsiz, ichki dardsiz, ehtirossiz yozilgan asar o'likdir*
23. Qaysi gapda fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan fe'l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?  
 A) *Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovlarining eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.*  
 B) *Hokimlar oldida tilining uzun bo'lganiga ishongan ellikboshi fuqaroni sira mensimaydi.*  
 C) *Ovqat ustida Xadicha qishloqda bo'lib o'tgan hamma hodisalar haqida gapirdi.*  
 D) *Kal ketaverdi, ketaverdi, horib, suvsab, oqshab, boshini bir joyga qo'yib yotdi.*
24. Qaysi gap tarkibida fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?  
 A) *Bolaligimni sirdosh dugonalalr davrasida o'tkazmaganman.*  
 B) *Belanchakda yotgan go'dakning o'ksik yig'isi Oysha onaga ta'sir qildi.*  
 C) *Qizining doimiy ezgin xayollar og'ushida yurganini ko'rib, uning bir dardiga o'n dard qo'shildi.*  
 D) *Rahimjon korxonada xodimlarining e'tiborsizliklari tufayli yuzaga kelgan qatro jiddiy muammolar haqida gapirdi.*
25. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida o'zini "kuyib o'rtangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'rif beradi?  
 A) *Avaz O'tar* B) *Turdi* C) *Zavqiy* D) *Muqumiy*
26. Qaysi g'azalda oshiq ko'zlaridan qonli yoshning to'kilishi bahor faslida soylardagi suvlarning loyqalanib oqishiga mutanosib tasvirlangan?  
 A) *Mashrabning "O'tum" radifli g'azalida*  
 B) *Zahiriddin Boburning "Mening ko'nglumki..." g'azalida*  
 C) *Ogahiyning "Navro'z" radifli g'azalida*  
 D) *Fuzuliyning "Mani jondan o'sondirdi" g'azalida*
27. Bog' tasviri berilgan quyidagi parcha qaysi dostondan olingan?  
 "Bir qancha yo'l yurib edi, oldidan chiqdi katta bir bog', bir yog'i chorbog', juda katta - kalondimog', ko'rganlar farog'..."  
 A) *"Alpomish"dan* B) *"Kuntug'mish"dan* C) *"Ravshan"dan* D) *"Rustamxon"dan*
28. "Nevara" nomli doston yaratgan adibni belgilang.  
 A) *Shuhrat* B) *E. Vohidov* C) *Mirmuhsin* D) *R. Hamzatov*
29. Qoplonbek va Oymomo Tog'ay Murodning qaysi asari qahramonlari hisoblanadi?  
 A) *"Ot kishnagan oqshom"*  
 B) *"Otamdan qolgan dalalar"*  
 C) *"Oydinda yurgan odamlar"*  
 D) *"Yulduzlar mangu yonadi"*
30. Musa Jalilning "Moabit" daftari to'plamini kim o'zbek tiliga tarjima qilgan?  
 A) *Jumaniyoz Jabborov* B) *Mamarasul Boboyev* C) *Ergash Ochilov* D) *Erkin Vohidov*
31. "Alar qo'ydi ikkisi yo'l sari pay,  
 Boqib turg'onda yo'lg'a zar sochib oy.  
 Birikib ketti oshiqlar uzoqqa,  
 Tinmay yo'l uza qo'ygan tuzoqqa".  
 Ushbu parchada tasvirlangan oshiqlar kim edi?  
 A) *Kuntug'mish va Xolbeka* B) *Farhod va Shirin* C) *Layli va Majnun*  
 D) *Suhayl va Guldursun*
32. Menga yaxshi dedi yor birla o'lmak,  
 Na lozim g'am bilan dunyoda qolmak!  
 Shu so'zni aytti, tig' urdi o'zig'a,  
 Ko'rinmay qoldi keng olam ko'zig'a.  
 Ushbu she'riy parchada qaysi adabiy qahramon holati tasvirlangan?  
 A) *Farhod, "Farhod va Shirin"*  
 B) *Majnun, "Layli va Majnun"*  
 C) *Suhayl, "Suhayl va Guldursun"*  
 D) *Suhayl, "Sab'ayi sayyor"*
33. Nasr ibn Ahmad Somoniyni beixtiyor yurtiga qaytishga majbur etgan "Mo'liyoning bo'yi bu yonga kelur" deb boshlanuvchi g'azal muallifini aniqlang.  
 A) *Rudakiy* B) *Atoiy* C) *Ogahiy* D) *Firdavsiy*
34. O'z ma'shuqasini ilk bora tushida ko'rgan badiiy qahramonni aniqlang.  
 A) *Suhayl ("Suhayl va Guldursun")*  
 B) *Ravshan ("Ravshan")*  
 C) *Farhod ("Farhod va Shirin")*  
 D) *Rustamxon ("Rustamxon")*
35. Ko'nglum g'am ila to'q ayla, yo Rab!  
 Ishq ichra meni yo'q ayla, yo Rab!  
 Ushbu parcha Alishe Navoiy ijodidagi qaysi adabiy qahramon tilidan aytilgan?  
 A) *Shirin* B) *Majnun* C) *Farhod* D) *Layli*
36. Quyidagi baytda qo'llangan badiiy san'atni toping.  
 Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turib shamshod,  
 Tutar yo'lingda nargisdin shamshon lola.  
 A) *tanosub, tazod, husni ta'lil*  
 B) *tanosub, tashxis, husni ta'lil*  
 C) *tashxis, tashbeh, isroli masal*  
 D) *talmeh, tazod, iyhom*

## BIOLOGIYA

37. Quyonlarda quloq suprasining uzunligi 2 juft polimer genlarga bog'liq. Agar quloq suprasining uzunligi 20 sm li  $A_1a_1A_2a_2$  genotipli urg'ochi quyon va quloq suprasining uzunligi 16 sm li  $A_1a_1a_2a_2$  genotipli erkak quyon bilan chatishtirilsa, avlodning necha foizini quloq suprasining uzunligi 20 smli quyonlar tashkil qiladi?  
 A) 25 B) 75 C) 50 D) 37,5
38. Tishlarning qoramtir rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchisi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oilasida tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ildigan farzandlarning necha foizida belgining faqat X xromosoma orqali irsiylanadigan turi mavjud bo'ladi?  
 A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Itning koker zoti junining qora rangi dominant noallel A va B genlarga bog'liq. Faqat A genining dominant holatda bo'lishi junning malla, B genining dominant holatda bo'lishi junning jigarrang, dominant genlarning uchramasligi junning oq rangda bo'lishini ta'minlansa, digeterozigota genotipli organizmlar o'zaro chatishtirilgandan olingan avlodning necha foizini fenotip va genotip jihatdan ota-onadan o'xshash organizmlar tashkil qiladi?  
 A) 31,25 B) 37,5 C) 25 D) 75
40. i-RNK janjirida 60 ta triplet mavjud. Undagi nukleotidlarning 1/3 qismi uratsilli, 1/5 qismi adeninli, 20% i sitozinli nukleotidlardan iborat. Nuklein kislotalar tarkibidagi nukleotidlar fosfodiefir bog'lar orqali tutashadi. Shu i-RNK fosfodiefir bog'lar sonini (a) va nukleotidlar tarkibini (b) toping.  
 A)  $a=179; b-U=20, A=12, C=12, G=16$   
 B)  $a=179; b-U=60, A=36, C=36, G=48$   
 C)  $a=59; b-U=20, A=12, C=12, G=16$   
 D)  $a=180; b-U=60, A=36, C=36, G=48$
41. O'simlik mitoxondriyasida oksidlanish jarayonida 36 molekula ATF sintezlangan bo'lsa, sitoplazmada qancha energiya (kJ) issiqlik sifatida tarqalgan (a) va shu vaqt davomida xloroplastda hosil bo'lgan ATF molekulasini sonini (b) aniqlang.  
 A)  $a=120; b=1140$   
 B)  $a=240; b=4320$   
 C)  $a=120; b=1080$   
 D)  $a=240; b=2280$
42. Diploid olcha (a) va tetraploid ( $n=12$ ) tamakida (b) meyoziy profaza I bosqichida xromatidlar sonini aniqlang.  
 A)  $a=32; b=48$   
 B)  $a=64; b=96$   
 C)  $a=32; b=12$   
 D)  $a=8; b=72$

43. Organizmlarning qaysi sistematik guruhlarida idioadaptatsiyalar natijasida paydo bo'lgan?  
1) suyakli baliqlar; 2) pardaqanotlilar; 3) suluv ninachi; 4) yassi chuvalchanglar; 5) toq tuyoqlilar; 6) oltinrang krot; 7) mol kanasi  
A) 3,6,7 B) 1,4,5,6 C) 3,4,5 D) 1,2,3,6
44. Quyidagilar orasidan odam tanasiga oid noto'g'ri ma'lumotni aniqlang.  
A) *Qorin bo'shlig'i pastki qismidagi organlar ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv tolalari boshqaradi.*  
B) *Yurak ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv sistemasining tolalari boshqarmaydi, bel umurtqasining ro'parasida oshqozon osti bezi joylashgan.*  
C) *Siydik pufagi ishini orqa miyaning dumg'aza segmentidan chiquvchi parasimpatik nerv sistemasining tolalari boshqarmaydi.*  
D) *Orqa miyaning bo'yin segmenti tolalari ichak faoliyatini boshqarishda ishtirok etmaydi, yurak faoliyatini boshqarishda adashgan nerv tolalari ishtirok etadi.*
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.  
1) qushlarni issiqqonlilik; 2) urug'li o'simliklarda chang yo'li va urug; 3) hasharotlarda qanot; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) sutemizuvchilarda to'rt kamerali yurak; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum  
A) a-3,4; b-1,2  
B) a-2,6; b-1,5  
C) a-3,4; b-5,6  
D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biosfera (b) darajadagi hodisalarni aniqlang.  
1) lipa changdonida arxeosporaning hosil bo'lishi; 2) itbaliqning metamorfozi; 3) uglerodning biogen migratsiyasi; 4) yadrochada ribosomalarning shakllanishi; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovul kenja turining paydo bo'lishi; 7) o'tloqda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati  
A) a-2,5; b-3  
B) a-1,6; b-3  
C) a-5,7; b-3  
D) a-2,4,6; b-7
47. Organizmlarning fiziologik mezoniga berilgan to'g'ri ta'riflar ko'rsatilgan javobni aniqlang.  
1) suv shillig'i tizimcha shaklida shilimshiq ip ichiga tuxumlarini qo'yadi; 2) Osiyo chigirtkasining g'umbagi tuproqdagi maxsus ko'zchalarda yetiladi; 3) Afrika tilyapiya baliq'ining urg'ochisi tuxumlarini og'zida olib yuradi; 4) daryo qisqichbaqasi urug'langan tuxumlarini qorinoyoqlariga yopishtirib olib yuradi; 5) baqachanoqning lichinkasi tanasidagi tishchalar yoki yopishqoq iplar yordamida baliqlar terisiga yopishib oladi; 6) yexidnaning urg'ochisi bitta tuxum qo'yadi va tuxumlarini o'zi bosib yotadi.  
A) 1,3,6 B) 2,4,6 C) 1,4,5 D) 2,3,5
48. Yoz oylarida ko'p terlash natijasida ko'p suyuqlik yo'qotishi uning ichki muhiti kimyoviy tarkibining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu o'zgaruvchanlikning qaysi turiga misol bo'ladi?  
A) *genotipik-ontogenetik*  
B) *fenotipik-ontogenetik*  
C) *genotipik-rekombinativ*  
D) *fenotipik-modifikatsion*
49. Bosh miyaning stvol qismida (a) va orqa miyada (b) joylashgan vegetativ nerv sistemasi markazlarining funksiyalarini aniqlang.  
1) yurakning minutlik sistolik hajmini oshiradi; 2) o'pkalar ventilatsiyasini kuchaytiradi; 3) ko'z qorachig'ini kengaytiradi; 4) me'da shirasi ishlab chiqarilishini kuchaytiradi; 5) siydik pufagi muskulini bo'shashtiradi; 6) siydik pufagi muskulini qisqartiradi  
A) a-4; b-1,2 B) a-1; b-3,6 C) a-2; b-4,5 D) a-5; b-2,4
50. II qon guruhiga ega rezus musbat, sog'lom o'g'il bolaning katta qon aylanish doirasi arteriyalardagi qon plazmasida qanday moddalar bo'ladi?  
A) *antitanalar, insulin, agglyutinini β, gemoglobin, glyukoza, fermentlar*  
B) *gormonlar, vitaminlar, antitanalar, glyukoza, agglyutinogen A*  
C) *antigemofil omil, agglyutinini β, gormonlar, vitaminlar, rezus omil*  
D) *aminokislota, mochevina, kreatinin, tiamin, agglyutinini β*
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.  
1) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lining harakatida ishtirok etadi  
A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilar orasidan sog'lom odamning siydik qopiga xos bo'lmagan belgilarni ajrating.  
1) murtak varaqasining endodermasidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasi orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalari ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatik nerv sistemasi ta'sirida muskullari bo'shashtiradi; 6) siydik qopi devorida proprioretseptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siydik qopi muskullari qisqarib siydik ajraladi  
A) 1,2,3 B) 1,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi to'g'ri fikrni aniqlang.  
A) *Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar siypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*  
B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.*  
C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilymfa suyuqligi bo'ladi.*  
D) *Harakat analizatorining oliy nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.*
54. Metamorfoz jarayonida g'umbaklik bosqichini o'taydigan hasharotlar turkumlarini aniqlang.  
A) *ikki qanotlilar, pardaqanotlilar, tangachaqanotlilar, chumolilar*  
B) *qo'ng'izlar, arilar, yaydoqchilar, kapalaklar*  
C) *ikki qanotlilar, pardaqanotlilar, tangachaqanotlilar, burgalar*  
D) *qo'ng'izlar, arilar, kapalaklar, pashshalar, chumolilar*
55. Daryo qisqichbaqasi organlari ularning soni bilan juftlang.  
a) 10ta; b) 8 ta; c) 6ta; d) 4ta; e) 2ta  
1) murakkab ko'zlari; 2) dum suzgichi; 3) pastki jag'lari; 4) haqiqiy yurish oyoqlari; 5) qisqichlari; 6) ikki shoxli qorinoyoqlari; 7) mo'ylovlari; 8) jag'oyoqlari; 9) yuqori jag'lari  
A) a-6; b-4; c-8; d-3,7,9; e-1,2,5  
B) a-6; b-4; c-8; d-2,3,7; e-1,5,9  
C) a-6; b-4; c-8; d-2,7,9; e-1,3,5  
D) a-6; b-4; c-8; d-3,5,9; e-1,2,7
56. Alligator bilan bir sinfdagi (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.  
A) *a-gekkon, kobra, g'izol, zubr*  
B) *a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon*  
C) *a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha*  
D) *a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon*
57. Qushning qanday patlarida ilgakchalar mavjud emas?  
1) par; 2) qoplag'ich patlar; 3) qoqish patlari; 4) momiq patlar; 5) boshqarish patlari  
A) 3,5 B) 1,4 C) 2,4 D) 1,5
58. Fototrof organizmlarda parazitlik qiluvchi, hujayra qobig'i xitin moddadan iborat organizmlarni belgilang.  
1) gommoz qo'zg'atuvchisi; 2) vertitsillium; 3) zang zamburug'i; 4) nematoda; 5) qorakuya; 6) nozema; 7) tripanosoma  
A) 4,6 B) 1,6 C) 3,7 D) 2,5
59. Prokariot hujayraga xos bo'lmagan ma'lumotlarni aniqlang.  
1) tugunak bakteriyasida membrana sitoplazmani hujayra qobig'idan ajratib turadi; 2) nostokning sharsimon hujayrasida ribosoma, halqasimon DNK va mezosoma mavjud; 3) xrokkok sentroplazmasidagi xlorofill birlamchi uglevod sintezini amalga oshiradi; 4) gommoz qo'zg'atuvchisi hujayrasida fotosintez membranalarida amalga oshiradi; 5) pichan bakteriyasida irsiy axborot sitoplazmadagi membrana bilan o'ralgan halqasimon polinukleotidda joylashgan; 6) prokariot hujayrada zaxira moddalar sifatida polisaxaridlar va yog'lar to'planadi  
A) 1,6 B) 1,3 C) 3,5 D) 2,4
60. Hujayra joyining o'zgarishini (1), hujayrada moddalar tashilishini (2), hayvonlarda hujayralararo aloqani (3), hujayra ichki tuzilmasini harakatini (4) ta'minlaydigan hujayra tuzilmalarini to'g'ri ko'rsating.  
a) tashqi endoplazmatik membrana; b) endoplazmatik to'r; c) sitoskelet; d) Golji majmuasi  
A) 1-c; 2-b; 3-a; 4-c  
B) 1-a; 2-d; 3-b; 4-c

- C) 1-b; 2-c; 3-a; 4-d  
D) 1-a; 2-a; 3-c; 4-b
61. Drosophila somatik hujayrasida sodir bo'ladigan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.  
1) profazada ikki xromatidali xromosomalar soni 16 ta; 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 16 ta; 3) metafazada ikki xromatidali autosomalar soni 6 ta; 4) anafazada xromosomalar soni 16 ta; 5) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 8 ta; 6) interfaza G<sub>1</sub> davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 8 ta  
A) 2,6 B) 3,5 C) 1,4 D) 5,6
62. Seleksiyada yakka (a) va yalpi (b) tanlash usullarining qo'llanilishi bilan bog'liq ma'lumotlar to'g'ri juftlangan javobni belgilang.  
1) chetdan changlanuvchi o'simliklarga nisbatan qo'llaniladi; 2) toza liniyalar olinadi; 3) genetik nuqtai nazardan bir xil bo'lmagan navlar olinadi; 4) genetik nuqtai nazardan bir xil organizmlar guruhi olinadi; 5) avlodlar soni kam bo'lganligi sababli chorvachilikda qo'llaniladi  
A) a-3; b-1,2  
B) a-1,4; b-3,5  
C) a-2,4; b-3  
D) a-1,3; b-4,5
63. BamHI restriktazasi GGATCC nukleotidlar ketma-ketligini tanib, GG nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 134,3 nm uzunlikdagi DNK molekulasida BamHI restriktazasi orqali A,B,C,D,E bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNK bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNK molekulasidagi vodorod bog'lar sonidan 4% ga kam. Agar nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, dastlabki DNK molekulasida tarkibidagi nechta vodorod bog'lari A va T nukleotidlari orasida joylashgan?  
A) 480 B) 354 C) 370 D) 320
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?  
A) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva  
B) a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva  
C) a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyshiq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q  
D) a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkak meva, pallalari orasida to'sig'i bor
65. Barglari novdada qarama-qarshi joylashgan, gullari qiyshiq o'simliklarni aniqlang.  
1) kiyiko't; 2) beda; 3) loviya; 4) marmarak; 5) isirg'ao't; 6) nastarin; 7) rayhon; 8) afsonak  
A) 2,3,5 B) 1,2,6,7 C) 1,6,7 D) 3,4,6,8
66. Quyidagi javoblarning qaysilaridan gullari bir xil to'pgullarda joylashgan o'simliklar juftlangan?  
1) karrak va kakra; 2) javdar va bug'doyiq; 3) arpa va sholi; 4) kavrak va kakra; 5) bo'znoq va shuvoq; 6) tol va oqqayin; 7) shashir va andiz; 8) kelinsupurgi va bo'tako'z  
A) 1,2,5,6 B) 2,4,7,8 C) 1,3,4,6 D) 2,3,5,8
67. Makkajo'xori haqida to'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotni aniqlang.  
A) Poxol poyasi bir metrdan oshadigan, bo'g'imlarga bo'lingan, tik o'suvchi ko'p yillik o'simlik.  
B) Urug'dagi murtagi ildizcha, poyacha va ikkita bargchadan tashkil topgan.  
C) Gullari mayda, rangsiz, ayrim jinsli, urug'chi gullar so'ta to'pgulida tashkil joylashgan.  
D) Chatnaydigan mevasi quruq, etsiz, ko'p urug'li.
68. Zuxrasoch o'simligining sporadan rivojlanuvchi bo'g'inida qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoniy; 6) anteridy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gameta  
A) 4,6,10 B) 1,2,3 C) 5,6,7 D) 7,8,9
69. Funariyada sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?  
1) yashil ipcha; 2) kurtakcha; 3) poya; 4) barg; 5) arxegoniy; 6) sporangiyband; 7) anteridy; 8) sporalar; 9) rizoid; 10) sporangiy  
A) 1,2,9 B) 5,7,8 C) 6,8,10 D) 3,4,10
70. Dala qirqbo'g'im tushunchasi bilan mantiqiy bog'liq bo'lmagan atamalarni aniqlang.  
1) urug'; 2) ildizpoya; 3) ikki jinsli gametofit; 4) sporofill; 5) ayrim jinsli gametofit; 6) arxegoniy; 7) urug'kurtak; 8) endosperm; 9) anteridy; 10) zigota; 11) spora beruvchi boshqoq; 12) sorus  
A) 2,3,5,9,11  
B) 1,3,7,8,12  
C) 1,5,7,10,12  
D) 4,5,6,7,9,10
71. Bitta biografik viloyatda tarqalgan hayvonlarni belgilang.  
A) yalqov, tapir, vampir, pingvin, malla revun, shinshila, lemur, emu, vixuxol, skuns  
B) kabarga, los, chittak, ot, yelik, bo'ri, kar, vixuxol, qunduz, tustovuq, zubr, maral, yovvoyi, qo'y  
C) jirafa, agama, kapachi qush, echkamar, nosorog, zebra, lemur, zubr, martishka, begemot  
D) antilopa, tapir, fil, bug'u, qirg'ovul, sezarka, tovus, orangutan, nosorog, echkamar
72. Quyidagilardan ajdodlar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.  
1) bug'doyiq, marvaridgul, qirqqoqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchi barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchani tug'ilishi; 4) to'riq otlarda xira chiziqning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanotlari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi  
A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7

## KIMYO

73. Tabiiy yuqori molekulyar birikmalarni ko'rsating.  
1) selluloza; 2) viskoza; 3) kraxmal; 4) atsetat; 5) oqsil; 6) rezina; 7) nuklein kislotasi; 8) lignin  
A) 2,4,6,7,8  
B) 1,3,5,7,8  
C) 1,2,3,4,6  
D) 3,4,5,6,7
74. Buten -3-kislota molekulasida tarkibidagi ikkinchi uglerod atomining oksidlanish darajasini toping.  
A) +1 B) -2 C) -3 D) +3
75. Azotning o'zlashtirilishida va organizmdagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida katta ahamiyatga ega metallni aniqlang.  
A) Co B) Fe C) Cu D) Mo
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 48,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislotasi eritmasida gidrolizlanganda 67 g modda hosil bo'ladi. Aminokislota ni aniqlang.  
A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. 17,8 g  $\alpha$ -aminokislota 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislota ni toping.  
A)  $\alpha$ -amino 2-metilpropan kislotasi  
B) glitsin  
C)  $\beta$ -aminopropion kislotasi  
D)  $\alpha$ -aminopropion kislotasi
78. 0,4 mol laktoza gidrolizlanishidan olingan glukozaning moy kislotani bijg'ishidan hosil bo'lgan mahsulotlarni to'la neytrallashtirish uchun nechta gramm 20% li KOH sarflanadi?  
A) 280 B) 112 C) 400 D) 560
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 4,48 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday miqdordagi aralashma NaHCO<sub>3</sub> eritmasi bilan ishlanganda olingan gaz 195,6 g NaOH eritmasidan o'tkazilganda faqat NaHCO<sub>3</sub> tutgan 4,2% li eritma hosil bo'ldi. Agar boshlang'ich aralashmada sirka kislotaning massasi propanol massasiga teng bo'lsa, propanol massasini (g) aniqlang.  
A) 6 B) 24 C) 12 D) 3
80. Molekula va ionlarni sp<sup>3</sup>-s bog'lar soni kamayib borish tartibida joylashtirilgan qatorni tanlang.  
A) etanol, metilamin, sirka kislotasi  
B) sirka kislotasi, moy kislotasi, sut kislotasi  
C) gidroksoniy kationi, sirka kislotasi, metilamin  
D) gidroksoniy kationi, metilamin, ammiak

81. Quyidagi qaysi modda alyuminiy xlorid bilan ta'sirlashmaydi?  
A) natriy karbonat  
B) natriy sulfid  
C) natriy sulfat  
D) natriy gidroksid
82. 11,6 g asetonga yetarli miqdorda gidroksilamin ta'sir ettirilganda necha gramm oksim hosil bo'ladi?  
A) 29,2 B) 14,6 C) 21,9 D) 27
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO<sub>2</sub> gazi, 0,2 mol benzoy kislotasi va 0,4 mol tereftal kislotasi hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.  
A) 20,1; 12  
B) 33,5; 80,4  
C) 46,9; 93,8  
D) 26,8; 53,6
84. 1:2 mol nisbatda olingan Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtirokida qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nayni to'liq eritish uchun 200 g 98% li sulfat kislotasi eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlanganini aniqlang?  
A) 50 B) 80 C) 40 D) 60
85. Qaysi xloridlar suvda erimaydi?  
A) AgCl, FeCl<sub>3</sub>  
B) MgCl<sub>2</sub>, CuCl<sub>2</sub>  
C) AlCl<sub>3</sub>, PbCl<sub>2</sub>  
D) PbCl<sub>2</sub>, Hg<sub>2</sub>Cl<sub>2</sub>
86. Necha gramm triakontan tarkibida 0,6·N<sub>A</sub> ta uglerod atomi bor?  
A) 8,44 B) 2,11 C) 6,33 D) 4,22
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stexiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.  
A) 1/9; 5/9; 1/3  
B) 3/10; 3/10; 2/5  
C) 1/6; 1/2; 1/3  
D) 1/4; 1/4; 1/2
88.  ${}^{238}_{92}\text{U} + 10\alpha \rightarrow \text{E} + \text{A} + \text{p} + 7\text{n}$  Ushbu yadro reaksiyasida E element izotopi massasi Uran izotopi massasidan 4/5 marta, A element izotopi massasidan esa 2,4 marta katta. E elementdagi elektronlar soni A element elektronlari sonidan 43 taga ko'p bo'lsa, E elementni aniqlang.  
A) Pb B) Ir C) Pt D) Bi
89. 20,3 g MgA<sub>2</sub>·6H<sub>2</sub>O tarkibli kristallogidrat 39,2 ml suvda eritilganda eruvchanligi 19 g bo'lgan tuzning to'yingan eritmasi hosil bo'ldi. Tuzni aniqlang.  
A) MgBr<sub>2</sub>  
B) MgI<sub>2</sub>  
C) MgCl<sub>2</sub>  
D) MgF<sub>2</sub>
90. Yodolda uglerodning massa ulushini (%) hisoblang.  
A) 6,4 B) 3,2 C) 8,4 D) 7,2
91. Normal sharoitdagi gazning bosimi 4 marta, tempurasi 2,5 marta oshirilganda uning molyar hajmi (litr/mol) nechaga teng bo'ladi?  
A) 22,4 B) 28 C) 5,6 D) 14
92. X% li eritma massasining 1/5 qismi bug'latildi. Bunda erituvchining massasi 1/4 qismga kamaydi. Eritmaning massa ulushi 5/4 marta ortsa, X ni aniqlang.  
A) 15 B) 25 C) 30 D) 20
93. 200 g 14,2% Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> eritmasiga yetarli miqdorda 100 ml H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasi qo'shildi. Bunda olingan eritmadagi NaH<sub>2</sub>PO<sub>4</sub> tuzining massa ulushi Na<sub>2</sub>HPO<sub>4</sub> tuzining massa ulushidan 71/40 marta kam bo'ldi. Qo'shilgan H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasining molyarligini (M) aniqlang.  
A) 0,1 B) 0,3 C) 0,4 D) 0,5
94. Biror bir tuzning 90°C dagi eruvchanlik koeffitsiyenti 60°C dagi eruvchanlik koeffitsiyentidan 3 barobar ko'p shu tuzning 90°C da to'yingan 240 g eritmasi 60°C ga sovutilganda 60 g tuz cho'kmaga tushishi ma'lum bo'lsa, tuzning 90°C dagi eruvchanlik koeffitsiyenti aniqlang.  
A) 30 B) 10 C) 60 D) 20
95. Eritmadagi H<sup>+</sup> ionlari OH<sup>-</sup> ionlaridan 10<sup>2</sup> marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.  
A) 4 B) 9 C) 5 D) 8
96. Ishqor suvli eritmada quyidagi qaysi moddalar bilan ta'sirlashmaydi?  
A) bariy nitrat, alyuminiy xlorid  
B) bariy sulfat, natriy xlorid  
C) xrom(III) gidroksid, xrom trioksid  
D) diyod pentaoksid, vodorod sulfid
97. NH<sub>3</sub>+KClO→KCl+N<sub>2</sub>+H<sub>2</sub>O reaksiya bo'yicha oksidlovchi 6·N<sub>A</sub> elektron olgan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) toping.  
A) 11,2 B) 33,6 C) 22,4 D) 44,8
98. 0,3 mol Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>·10H<sub>2</sub>O tarkibli kristallogidrat ma'lum miqdordagi suvda eritilib 1,5 molyalli eritma hosil bo'lgunga qadar 10 amper tok kuchi bilan 19300 sekund davomida elektoliz qilindi. Kristallogidrat necha gramm suvda eritilganligini aniqlang?  
A) 246,4 B) 96,4 C) 164 D) 182
99. 0,1 mol natriy peroksidni regeneratsiya qilish uchun tarkibida hajm jihatdan 2% CO<sub>2</sub> tutgan havodan qancha hajm (litr, n.sh.) zarur?  
A) 896 B) 112 C) 448 D) 224
100. To'yingan bir atomli spirt tarkibida kislorodning massa ulushi uglerod va vodorodning birgalikdagi massa ulushiga teng bo'lsa, uglerodning massa ulushini aniqlang.  
A) 3/5 B) 12/23 C) 3/8 D) 24/37
101. Moylarning qotishini tezlashtirish uchun ularga sikkativlar deb ataladigan katalizator ishlatiladi. Sikkativ sifatida ishlatiladigan katalizatorni aniqlang.  
A) P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>  
B) (CH<sub>3</sub>CO)<sub>2</sub>O  
C) Pb<sub>3</sub>O<sub>4</sub>  
D) H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>
102. Bariy xlorid eritmasiga tegishli miqdorda Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub>·10H<sub>2</sub>O kristallogidratidan qo'shilganda 233 g cho'kma tushdi va 2,5 molyalli eritma hosil bo'ladi. Dastlabki bariy xlorid eritmasining massasini (g) aniqlang.  
A) 524 B) 628 C) 208 D) 828
103. xMgCO<sub>3</sub>=yMgCO<sub>3</sub>+zMgO+zCO<sub>2</sub> ifoda qanday ma'noni anglatadi?  
A) reaksiyaning mahsulot unumi 100% dan kichikligi  
B) tuzning namlik darajasi yuqori ekanligi  
C) MgCO<sub>3</sub> tarkibida qo'shimchalar borligini  
D) reaksiyaning qaytarligini
104. Teng hajmli azot va vodorod reaksiyasidan hosil bo'lgan gazlar aralashmasining geliyga nisbatan zichligini aniqlang.  
A) 14 B) 45/8 C) 28 D) 45/4
105. 10,96 g Ca<sub>3</sub>N<sub>2</sub> va CaH<sub>2</sub> dan iborat aralashma teng ikki qismga ajratildi. Aralashmaning 1-qismiga yetarli miqdorda suv ta'sir ettirilganda 0,16 mol gazlar ajraldi. 2- qismiga mo'l miqdorda xlorid kislotasi ta'sir ettirilganda hosil bo'ladigan CaCl<sub>2</sub> ning miqdorini (mol) hisoblang.  
A) 0,12 B) 0,04 C) 0,02 D) 0,06
106. Qaysi tuz eritmasida ishqoriy muhitni ta'minlash gidrolizlanish reaksiyasini susaytiradi?  
A) MgSO<sub>4</sub>  
B) NaNO<sub>3</sub>  
C) K<sub>2</sub>SO<sub>3</sub>  
D) ZnCl<sub>2</sub>
107. Alkan molekulyar massasi uning takibidagi uglerod va vodorod atomlari massalari ayirmasidan (m.a.b) 12 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.  
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. C<sub>3</sub>H<sub>8</sub> tarkibli uglevodorod yonganda reaksiyaga kirishuvchi va hosil bo'luvchi moddalarning miqdorlari (mol) teng bo'lsa, x ning qiymati nechaga teng bo'ladi?  
A) 2 B) 4 C) 6 D) 8